



O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Toyirov Shohboz

Iqtisodiyot va pedagogika NTM

ORCID: 0009-0005-4087-0523

p.bunyodkor122@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada kambag'allikka qarshi kurashishda ijtimoiy himoya tizimining xalqaro ahamiyati, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarni qo'llab-quvvatlash tartibi ko'rib chiqilgan. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan. Tadqiqotda 2020-2024 yillar davomida O'zbekiston mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari, jumladan, ishsizlik va kambag'allik darajasi dinamikasi tahlil etilgan hamda hududlar kesimidagi kambag'allik darajasi baholangan. Tadqiqot so'nggida taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, ijtimoiy himoya, mehnat bozori, bandlik, ijtimoiy siyosat, minimal iste'mol xarajatlari, iqtisodiy o'sish, ko'p o'lchovli kambag'allik (MPI).

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Тойиров Шохбоз

НОУ Экономика и педагогика

Аннотация. В данной статье рассматривается международное значение системы социальной защиты в борьбе с бедностью, а также порядок поддержки отдельных категорий лиц, нуждающихся в социальной защите. В рамках Стратегии развития Нового Узбекистана освещены основные направления сокращения бедности. В исследовании проанализированы основные показатели рынка труда Узбекистана за 2020-2024 годы, в том числе динамика уровня безработицы и бедности, а также оценен уровень бедности в разрезе регионов. В конце исследования даны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: бедность, социальная защита, рынок труда, занятость, социальная политика, минимальные потребительские расходы, экономический рост, многомерная бедность (MPI).

WAYS TO IMPROVE THE MECHANISM FOR REDUCING POVERTY IN UZBEKISTAN

Toyirov Shohboz

National University of Economics and Pedagogy

Abstract. This article examines the international significance of the social protection system in combating poverty, as well as the procedure for supporting certain categories of individuals in need of social protection. Within the framework of the New Uzbekistan Development Strategy, the main directions for poverty reduction are highlighted. The study analyzed the main indicators of the Uzbekistan labor market for 2020-2024, including the dynamics of unemployment and poverty levels, and assessed the poverty level by region. At the end of the study, proposals and recommendations were given.

Key words: poverty, social protection, labor market, employment, social policy, minimum consumer spending, economic growth, multidimensional poverty (MPI).

Kirish.

Bugungi kunda dunyo miqyosida kambag'allikni bartaraf etish har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Kambag'allik nafaqat ijtimoiy tengsizlikning o'sishiga olib keladi, balki aholi turmush darajasi, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi muhim sohalarining ham rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, kambag'allikka qarshi kurashish samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2026-yilga borib, mamlakatimizda kambag'allik darajasini 2 barobarga qisqartirish vazifasi belgilangan (PF-60, 2022).

Birinchidan, mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishlaridan biri makroiqtisodiy o'sishni ta'minlash hisoblananib, 2026-yilgacha aholi jon boshiga YaIMni – 2,8 ming va 2030-yilga borib, 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish maqsad qilib olingan.

Ikkinchidan, mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasiga asosan 2026-yilgacha maktabgacha ta'lim qamrovini 80 foizgacha (joriy 70,3 foiz), oliy ta'lim bilan qamrov darajasini esa 50 foizgacha (joriy 38 foiz) yetkazish rejalashtirilgan. 2016-yilda maktabgacha ta'lim 27,7 foizni, oliy ta'lim bilan qamrov esa 9 foizni tashkil etgan.

Uchinchidan, hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash ham kambag'allikni qisqartirishda muhim o'rin egallaydi. Shu maqsadida O'zbekistonda mutlaqo yangi tizim, ya'ni "hokim yordamchilari" instituti yaratildi. Ilk yildayoq hokim yordamchilari ko'magida 1,2 mln. nafar aholi doimiy ish joylariga joylashtirildi, 1,1 mln. nafari o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatga olindi, 102 ming nafari yakka tartibdagi tadbirkorlikka va 166 ming nafari haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi, 430 ming nafari fuqarolarga ijara asosida yer maydonlari ajratildi.

To'rtinchidan, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi joriy etilib, oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordamni tayinlash uchun jon boshiga to'g'ri keluvchi bir oylik daromad mezonini minimal iste'mol xarajatlariga, ya'ni kambag'allik chegarasiga tenglashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan so'nggi yillarda kambag'allikni qisqartirish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunda "mahallabay" ishlash tizimi, ijtimoiy himoya dasturlarining kengaytirilishi, zamonaviy kasb-hunar o'rgatish markazlari faoliyati, xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlar asosiy o'rinni egallamoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori Bekker (2016) o'z nazariyasida intellektual kapitalga ham davlat, ham xususiy sarmoyalarni amalga oshirish iqtisodiy zarurat ekanligini asoslab bergan. Uning fikricha, fuqarolarning ta'limiga, tibbiyotga va kadrlarni to'ldirishga yo'naltirilgan ijtimoiy dasturlarga sarmoyalar kiritish insonlarning kambag'allikdan himoyalash bilan birga, yangi texnologiyalarni yaratishga sarmoya kiritish bo'lib, faqat kelajakda katta foyda keltirishi mumkin.

Inson taraqqiyoti kambag'allik kategoriyasiga nisbatan teskari proporsional ko'rsatkich bo'lib, uning shakllanishi ijtimoiy himoya dasturlariga bo'lgan zaruratni kamaytirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy sohani moliyalashtirish kambag'allikka qarshi kurashni o'zida to'g'ridan-to'g'ri aks ettirmasada, aholini umumiy kambag'allikka tushib qolishdan himoya qiladi. Shuningdek, uzoq muddatli davrdagi rejalarni aks ettirib, inson taraqqiyotini rivojlantirishga shart-sharoit yaratib beradi (Baratov, 2024).

Bugungi kunda 193 ta davlat a'zo hisoblangan Birlashgan millatlar tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarida global hamjamiyatni 2030 yilgacha qashshoqlik va ochlikka barham berish asosiy maqsad sifatida belgilandi. Ushbu maqsadga erishishning ko'plab usullari

mavjud bulib, bulardan biri sifatida kuchli ijtimoiy himoyani keltirish mumkin (Tursunov, 2024).

Mamlakatimizda aholining kambag'al qatlamini aniqlash uslubini amaliyotga joriy etish va takomillashtirib borish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son va "Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 11-avgustdagi PF-6277-son Farmonlari ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 544-son qarori bilan "Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risida" gi Nizom qabul qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqot, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston tarixida ilk bor kambag'allik masalasi 2020-yilning 24-yanvarida O'zbekiston Respublikasi prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasida ko'tarilib, mazkur mavzu ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy kun tartibiga aylandi.

Aholi o'rtasida ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to'lash yoki ularning miqdorini oshirish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin, degan fikr mavjud.

Bu – bir tomonlama yondashuv bo'lib, muammoni to'la yechish imkonini bermaydi. Zero, kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, kambag'allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil – bu insonning intilishi, o'z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo'lishi kerak.

Bevosita kambag'allik va qashshoqlik tushunchalariga keladigan bo'lsak, shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirda jahon bo'ylab kambag'allik yoki qashshoqlik tushunchalarining umum qabul qilingan hamda yagona kelishilgan ta'rifi ishlab chiqilmagan. Har bir mamlakat o'zi uchun belgilangan kambag'allik mezonidan kelib chiqib tavsiflaydi.

BMT ta'rifiga ko'ra, qashshoqlik – insonning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va to'yib ovqatlanmaslik, sog'liqni saqlash, ta'lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklovlarning mavjudligi, turar joyning yo'qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytiladi (BMTning «Ijtimoiy himoya borasida yuqori darajadagi Butunjahon sammiti»dan).

Kambag'allik esa insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo'lmasligi, jamiyatda to'laqonli ishtirok etish uchun to'siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta'lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlari yetishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, kambag'allik - bu insonlar, uy xo'jaliklari va jamoalarning ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, xavf-xatarlar oldida chorasizligi hamda nochorligi sanaladi (BMT, 2017).

Bundan tashqari, Jahon banki tomonidan 2015-yildagi 115 ta mamlakatda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida taklif etilgan uslubiyotga ko'ra, barcha mamlakatlar uchun 2011-yildagi narxlarda xarid qobiliyati pariteti bo'yicha qashshoqlik chegarasi 1,9, kambag'allik chegarasini esa mamlakatlar aholisi daromadlarining past, o'rta va yuqori darajalaridan kelib chiqib 1,9; 3,2; 5,5 va 21,7 AQSh dollari etib belgilash tavsiya etilgan.

Yuqoridagi ta'rif va uslubiyotlardan kelib chiqib, alohida qabul qilingan kambag'allikni aniqlash uslubiyoti asosida jami daromadi (yoki xarajati) belgilangan kambag'allik chegarasiga yetmagan aholi qatlamini kambag'al, hayot kechirishi uchun zaruriy ehtiyojlarini mutlaqo qondirish imkoniyati bo'lmagan qatlamni esa qashshoq aholi deb e'tirof etish mumkin.

Kambag'allik – bu insonning eng zaruriy ehtiyojlarini (ovqatlanish, kiyim-kechak, boshpana, sog'liqni saqlash, ta'lim, transport va boshqalar) qondira olmaslik holati bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlariga ega murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir.

Kambag'allikning asosiy turlari quyidagilardan iborat bo'lib, mamlakat ijtimoiy siyosatining ustuvorligi, iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi hamda ichki imkoniyatlardan kelib chiqib belgilanadi. Qator mamlakatlar milliy kambag'allik chegarasi sifatida mutlaq yoki nisbiy usuldan foydalanadi.

Mutlaq kambag'allik chegarasi kishi hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlar qiymati orqali aniqlanadi. Jahon tajribasida mutlaq kambag'allik chegarasining o'rtacha yillik miqdorini aniqlash uchun aholi jon boshiga YaIMning 25 foizi qabul qilingan bo'lib, aksar rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Kanada, Niderlandiya) mazkur ko'rsatkich nisbatan yuqoridir.

Nisbiy kambag'allik – jamiyatdagi o'rtacha daromad darajasiga nisbatan past daromadga ega bo'lgan holat. Nisbiy kambag'allik jamiyatdagi tengsizlik darajasini inobatga olsa-da, aholining barcha qatlami daromadi hamda kambag'allik darajasining o'zgarishini to'liq ifodalamaydi. Ammo shunga qaramay, bir qator davlatlar kambag'allik chegarasini belgilashda nisbiy usuldan foydalanadi. Misol uchun, Vengriya, Estoniya, Belarus, Chernogoriya, Rossiya kabi davlatlarda aholi daromadlari mediana qiymatining 60 foizi kambag'allik chegarasi sifatida qabul qilingan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich mos ravishda Polshada 50, Ukrainada 75 foizni tashkil etadi.

Subyektiv kambag'allik – odamlarning o'zini kambag'al deb his qilishi bilan bog'liq bo'lgan tushuncha.

Kambag'allikni o'lchashning asosiy usullari:

Daromad asosida o'lchash – shaxs yoki oilaning daromadi belgilangan minimumdan past bo'lsa, kambag'al deb baholanadi.

Iste'mol xarajatlari asosida o'lchash – aholining iste'mol darajasi asosida aniqlanadi.

Ko'p o'lchovli kambag'allik (Multidimensional Poverty Index) – daromad, ta'lim, sog'liqni saqlash, yashash sharoitlari kabi ko'rsatkichlar asosida baholanadi.

Sanab o'tilgan usullarda kishining ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda hech qanday to'siqlarsiz ishtirok eta olishini miqdoriy baholash cheklangan. Shuning uchun jahon tajribasida kambag'allikni ko'p o'lchamli baholash usulidan ham foydalaniladi. Mazkur usuldan Armaniston, Honduras, Dominikan Respublikasi, Kolumbiya, Kosta-Rika, Mozambik, Butan, Pokiston, Panama, Salvador, Chili, Ekvador, ba'zi Yel mamlakatlari hamda BMT Inson taraqqiyoti indeksini hisoblashda foydalaniladi.

Ko'p o'lchamli usulda uy xo'jaligi yoki kishining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishini ifodalovchi qator indikatorlarga vazn berish orqali binar usulda («ha» javobiga-1, «yo'q» javobiga-«0») hisoblanadi.

BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasi tomonidan ko'p o'lchamli kambag'allik darajasini hisoblashda aholi turmush darajasi, xizmatlar, sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik va atrof-muhit ko'rsatkichlarini hisobga olish tavsiya etiladi.

O'zbekistonning mehnat bozori va kambag'allikni qisqartirish borasidagi ko'rsatkichlar 2020–2024 yillar davomida sezilarli o'zgarishlarga yuz tutdi. Ushbu davrda mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, mehnat bozorini rivojlantirish va kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan strategiyalar samarali bo'ldi. Biroq, bu yo'nalishdagi masalalar hali ham murakkab va davom etuvchi jarayonni talab qiladi. Ushbu tahlilda O'zbekiston mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari, kambag'allikni qisqartirish

mexanizmlari va bu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligi haqida kengroq ma'lumot beriladi.

Mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari 2020-2024 yillar davomida jiddiy o'zgarishlarga uchradi. O'zbekistonning doimiy aholi soni har yili oshib borgan. 2020 yilda 34.22 million kishini tashkil etgan aholi soni 2024 yilga kelib 36.50 million kishiga yetdi. Aholining o'sishi, albatta, mehnat bozorida yangi ishchi kuchining talabini yanada oshirdi. Aholining o'sishi, bir tomondan, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashni talab qilsa, boshqa tomondan, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talabni kuchaytirdi. Biroq, doimiy aholi sonining ortishi bilan birga, ijtimoiy xizmatlar va infratuzilma tizimining ham barqaror rivojlanishi zarur.

2020–2024 yillar davomida O'zbekistonning mehnat yoshidagi aholi soni 22.05 million kishidan 23.40 million kishiga oshdi. Bu esa, yoshlarning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini oshirdi va shuningdek, yangi ish o'rinlari yaratish va ularni malaka oshirishga ehtiyojni ko'rsatdi. Yoshlar orasida ishga joylashish darajasi, ta'lim tizimining samaradorligi va ularning kasbiy malakalari mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlar keltirib chiqarmoqda. Bunda, yoshlar va ayollarni o'z ishini tashkil etish va ijtimoiy himoya dasturlari orqali bandlikni oshirishga qaratilgan yangi siyosatlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari (2020-2024-yillar)

T/R	Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
1	Doimiy aholi soni (ming)	34,220	34,750	35,320	35,870	36,500
2	Mehnat yoshidagi aholi soni (ming)	22,050	22,300	22,800	23,100	23,400
3	Iqtisodiy faol aholi (ming)	15,500	15,800	16,200	16,500	17,000
4	Bandlar - jami (ming)	13,800	14,300	14,800	15,200	15,700
5	Iqtisodiy nafaol aholi (ming)	6,550	7,000	7,500	7,900	8,300
6	Ishsizlik darajasi (%)	9.2	8.5	8.2	7.9	7.5
7	Kambag'allik darajasi (%)	14.5	13.8	12.5	11.0	8.9
8	Kambag'allik soni (ming)	4,958	4,794	4,415	3,948	3,250

Iqtisodiy faol aholi soni 2020-yildan 2024-yilgacha 15.5 million kishidan 17 million kishiga oshdi. Bu, O'zbekiston mehnat bozorining faollashganini ko'rsatadi. Ammo, mehnat bozorida yuzaga kelgan muammolar ham bor, jumladan, ish o'rinlarining etishmasligi, malakali ishchi kuchining yetishmasligi, shuningdek, ayrim mintaqalarda bandlik darajasi pastligi. O'zbekistonning ayrim hududlarida, ayniqsa, qishloq joylarida ish o'rinlarini yaratish va aholini ishga joylashtirish masalalari hali ham dolzarbdir. Bu holat, bandlikni ta'minlash uchun yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini yaratish va jahon bozorlariga moslashish zaruratini yuzaga keltiradi.

Kambag'allik darajasi ham sezilarli darajada kamaydi. 2020 yilda kambag'allik darajasi 14.5% bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 8.9% ga pasaygan. Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilgan davlat dasturlari, ayniqsa, qishloq joylarida ijtimoiy yordamlar va infratuzilma rivojlanishiga qaratilgan chora-tadbirlar samarali bo'ldi. Kambag'allikning kamayishi, O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligini oshirish va aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan islohotlar samarasidir.

Kambag'allikni qisqartirishning asosiy mexanizmlaridan biri – bu ijtimoiy yordam dasturlarini amalga oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan dasturlardir. O'zbekiston hukumati, kambag'allikni qisqartirishda, yoshlar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar va qishloq joylaridagi aholiga ijtimoiy yordamlarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ijtimoiy yordam dasturlari, yangi ish o'rinlarini yaratish, ta'lim tizimining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, mikro va kichik biznesni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga yordam berdi. Ayniqsa, qishloq va shaharlardagi ijtimoiy

infratuzilmani rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan harakatlar amalga oshirildi.

Kambag'allikni kamaytirishda ishlab chiqarish sektori va xizmatlar sohasini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning iqtisodiy o'sishi, davlat tomonidan yaratilgan infratuzilma va investitsion muhit orqali qo'llab-quvvatlandi. Shuningdek, kambag'allikni qisqartirishda eksportni kengaytirish va yangi bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaratish ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha kambag'allik darajasini baholash natijalari (2023-2024-yillar)

T/R	Hudud	2023-yil Kambag'allik darajasi (%)	2024-yil Kambag'allik darajasi (%)
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	13,6	10,8
2	Andijon viloyati	11,9	9,5
3	Buxoro viloyati	11,8	8,7
4	Jizzax viloyati	14,2	11,8
5	Navoiy viloyati	7,6	5,7
6	Namangan viloyati	10,4	7,6
7	Samarqand viloyati	10,5	7,5
8	Sirdaryo viloyati	13,8	11,3
9	Surxondaryo viloyati	10,6	9,3
10	Toshkent viloyati	10,2	8,0
11	Farg'ona viloyati	10,1	8,6
12	Xorazm viloyati	14,1	11,9
13	Qashqadaryo viloyati	11,5	9,6
14	Toshkent shahri	7,9	7,3

O'zbekiston Respublikasining hududlar bo'yicha kambag'allik darajasining tahlili 2023-2024-yillarda mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy o'sish, bandlik, infratuzilma va hududlar o'rtasidagi farqlarni aks ettiradi. Mamlakatda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar, davlat dasturlari, va ijtimoiy ko'maklar kambag'allik darajasini pasaytirishda muhim rol o'ynadi. Ayni paytda, barcha viloyatlarda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash va kambag'allikni yanada qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar davom etmoqda.

Kambag'allik, ayniqsa, qishloq joylarida, iqtisodiy inqirozlar, infratuzilmaning zaifligi, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarining yetishmasligi, mehnat bozori imkoniyatlarining cheklanganligi kabi omillar bilan bog'liq. Shuningdek, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy sharoitlar farqi mamlakatda kambag'allikning turli darajalarda ifodalanganligini ko'rsatadi. O'zbekistonning har bir viloyatining o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va geografik xususiyatlari mavjud, bu esa kambag'allikni qisqartirish uchun har bir hududda alohida strategiyalarni talab qiladi.

Shu bois, O'zbekistonning barcha viloyatlaridagi kambag'allik darajasini tahlil qilish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishi bilan bog'liq omillarni aniqlash, kambag'allikni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi samaradorlikni baholashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar.

Kambag'allikni qisqartirishda ijtimoiy siyosat quyidagilarga qaratilishi zarur deb hisoblaymiz:

davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi ijtimoiy barqarorlikni saqlashga, aholi turmush darajasini oshishiga qaratilishi;

iqtisodiy o'sishni ta'minlashda davlatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosati natijasida ko'pgina ijtimoiy ziddiyatlar, jumladan aholi daromadlari differentsiatsiyasi obyektiv o'rganish;

makroiqtisodiy siyosatning soliq va davlat xarajatlari yordamida ijtimoiy keskinlikni pasaytirishni hisobga olishi.

O'zbekiston uchun samarali bandlik va kambag'allikni qisqartirish hozirgi murakkab vaziyatni hal etishda maqsadli yo'nalish sifatida qaraladi. Demak, bu faoliyatni tartibga solishda quyidagilarni asosiy xulosa sifatida keltirish mumkin:

ijtimoiy ishlar kam ta'minlangan uy xo'jaliklari uchun iste'molni baravarlashtirish vositasi sifatida samaralidir;

aholining yuqori mehnat resurslari potensialiga ega ekanligini bilgan holda vaqtinchalik yoki muayyan muddatga mo'ljallangan jamoatchilik ishlarini, asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda qo'llash;

yangi ish joylarini rag'batlantirish maqsadida qayta moliyalash stavkalarini pasaytirish;

kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida ishsiz aholini faol mehnat faoliyatiga qaytarish chora-tadbirlarini amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyaga muhtoj qismini mikrokreditlashda ko'proq e'tiborni xotin-qizlarga nisbatan joriy qilish o'rinli deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasining «Kambag'allikni o'lchash bo'yicha qo'llanma»sidan, (2017) Nyu-York, Jyeneva.

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni.

Tursunov J.P. (2024) Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayrim toifadagi shaxslarga nafaqalar tayinlash va to'lash mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnal. V-son-may, 675-682.

Батова Б.З., Асланова Л.О., Аликаева М.В., Губачиков А.М. (2016) Проблемы финансирования образования в России // Фундаментальные исследования. № 5-3. – С. 546-550.